



DAVLAT VA JAMOAT ARBOBI SHAROF RASHIDOV XOTIRASINI ABADIYLASHTIRISH ISHLARIDA MUZEYLARNING TUTGAN O‘RNI

Elmuratova Shoxista Ablakulovna,

Alfraganus universiteti Xalqaro munosabatlar va tarix kafedrası o‘qituvchisi

ORCID: 0009-0001-5493- 4357

e-mail: fender4555@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda Jizzax shahrida faoliyat ko‘rsatib kelayotgan Sharof Rashidov muzeyi tarixi o‘rganib chiqildi. Mamlakatimizda mavjud uy-muzeylarining asosiy qismi Toshkent shahrida joylashganligi sababli mazkur maqolada aynan ushbu mintaqadagi uy-muzeylarining tarixi va faoliyatini o‘rganishga e‘tibor qaratildi.

Kalit so‘zlar: Muzey, uy-muzey, muzey kolleksiyalari, «Bolalar burchagi», smart, madaniyat, jamiyat, shaxs.

Abstract: In this article, the history of the Sharof Rashidov Museum, which is currently operating in the city of Jizzakh, is studied. Since most of the existing house-museums in our country are located in the city of Tashkent, this article focused on studying the history and activities of the house-museums in this region.

Key words: Museum, house-museum, museum collections, «Children’s corner», smart, culture, society, person.

KIRISH

Muzeylarning birinchi darajadagi vazifasi turli ashyolar, noyob buyumlar asosida buyuk alloma, mutafakkirlar hamda davlat, jamoat arboblarning ijodi va faoliyatini yoritishdir. Uy-muzeylarida namoyish qilinayotgan har bir eksponat shu xalqning o'tmish hayoti, iste'dodidan darak beradi. Respublikada faoliyat ko'rsatgan tarixiy shaxslar xotirasini abadiylashtirish maqsadida tashkil qilingan muzeylar – jamiyatimiz madaniy hayotidagi ahamiyatli muassasa. Bugungi kunda Vatanimizda mashhur tarixiy shaxslar xotirasiga bag'ishlangan bir qancha uy-muzeylari samarali faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yurtimizda tarixiy shaxslar xotirasini abadiylashtirish maqsadida tashkil etilgan uy-muzeylarining aksariyati Sharof Rashidov davrida amalga oshirilganligini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Mazkur soha rivojiga katta hissa qo'shgan Sharof Rashidov xotirasini qayta tiklash, nomini abadiylashtirish maqsadida davlat miqyosida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Sharof Rashidovich Rashidov (06.11.1917 – 31.10.1983) – davlat arbobi, yozuvchi, «Mehnat qahramoni» ordeni sohibi. Sharof Rashidov adabiyotga shoir sifatida kirib keldi va uning ilk she'riy asari «Chegarachilar» deb nomlanib, 1937-yilda nashr etilgan. Uning 1945-yilda chop etilgan «Qahrim» she'riy to'plami fashizm g'oyalariga qarshi kurash ruhida yozilgan mashhur asarlaridan biri hisoblanadi. Sharof Rashidov «G'oliblar» (1953) qissasini davrning eng muhim muammolaridan biri – lalmi yerlarni o'zlashtirish mavzusida yozgan. U keyinchalik Ikkinchi jahon urushi yillari front ortida og'ir mehnat qilgan xalq hayotiga bag'ishlangan «Bo'rondan kuchli» (1958), «Qudratli to'lqin» (1964), «G'oliblar» (1972) romanlarini yaratgan. Rashidov davlat va partiya arbobi sifatida xalq va yurt hayotida ro'y berayotgan voqealarni yoritishda adabiyot mezonlaridan ko'ra idealizm tamoyiliga ko'proq e'tibor bergan. Sharof Rashidovning hind xalq afsonasi asosida yozilgan «Kashmir qo'shig'i» (1956) lirik qissasi shoir ijodining xilma-xil ekanligini yaqqol namoyon qiladi.

Sharof Rashidovning respublikaga rahbarlik qilgan yillarida yirik bunyodkorlik ishlari bilan bir qatorda, qishloq xo'jaligi yerlaridan keng foydalanish natijasida ekologik vaziyatning yomonlashishi, paxtachilik masalasining hal etilishi kabi noxush hodisalar ro'y berdi. Mustaqillik davrida Sharof Rashidov nomi

oqlanib, O'zbekiston tarixidan munosib o'rin oldi. Birinchi Prezident Islom Karimov tashabbusi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 6-iyundagi 267-son qarori bilan shu yili Sharof Rashidov tavalludining 75 yilligi keng nishonlandi. Jizzax viloyati hokimining 1992-yil 7-maydagi 127-F-son farmoyishi asosida Sharof Rashidov yodgorlik filiali tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 27-martdagi «Buyuk davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligini nishonlash to'g'risida»gi PQ-2854-son Qarori asosida muzeyni ta'mirlash ishlari olib borilib, ko'rgazmasi qayta tiklandi.¹

NATIJALAR

Sharof Rashidovga vafotidan so'ng Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti (1994) ham berilgan. Bugungi kunda Sirdaryo viloyati, Toshkent va Jizzax shaharlaridagi ayrim ko'chalar, maktablar, mahallalar uning nomi bilan ataladi. Jizzax viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi qoshida «Sharof Rashidov yodgorlik muzeyi» tashkil etilgan. Mazkur muzey ekspozitsiyasi respublikani juda murakkab va og'ir yillarda boshqarib, O'zbekiston taraqqiyoti yo'lida samarali xizmat qilgan, ijtimoiy va ijodiy faoliyati bilan o'zbek milliy adabiyoti va madaniyati rivojiga katta hissa qo'shgan davlat arbobi, taniqli yozuvchi Sharof Rashidov xotirasini abadiylashtirish maqsadida tashkil etilgan. Muzey ekspozitsiyasini shakllantirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-martdagi «Atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligini nishonlash to'g'risida»gi Qarori konseptual-metodologik asos bo'lib xizmat qilgan.

Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligiga bag'ishlangan ekspozitsiya quyidagi bo'limlardan iborat edi:

1. Sharof Rashidov o'z xalqiga, vataniga fidoyi farzand;
2. Sharof Rashidov atoqli davlat arbobi;
3. Sharof Rashidov siyosat maydonida;
4. Sharof Rashidovning fan va madaniyat rivojiga qo'shgan hissasi;
5. Sharof Rashidov taniqli yozuvchi;
6. Sharof Rashidovning yorqin xotirasini ulug'lash.

Sharof Rashidov yodgorlik muzeyi filialining ilmiy xodimi Shohsanam Qurbonova bilan bo'lgan intervyu jarayonida ta'kidlanganidek, Jizzax viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi san'at, tabiat, tarix bo'limlari hamda Sharof Rashidov yodgorlik muzeyi filiali, Hamid

1. Sharof Rashidov muzeyi ma'lumotnomasidan. (murojaat sanasi: 28.06.2022)



Olimjon va Zulfiya uy-muzeyi filiali, Zomin tumani tarixi filiallaridan iborat bo'lib, bu bo'lim va filiallarda Jizzax viloyatining betakror san'ati, tabiati, tarixini yorituvchi eksponatlar namoyish etilmoqda².

MUHOKAMA

Sharof Rashidov yodgorlik muzeyi filialining xodimlari tomonidan yil davomida «Jizzax haqiqati» gazetasida turkum maqolalar nashr etib borilmoqda. Muzeysga tashrif buyurgan ziyoratchilarga muzey xodimlarining namunali xizmat ko'rsatishi yo'lga qo'yilgan. Shu bilan birga muzey filialiga yiliga jami 2400 dan ortiq tomoshabinlar tashrif buyurib, jami 4,8 million so'mdan ortiq pul kirim qilingani qayd etilgan.

Ta'kidlash lozimki, muzey faoliyatini samarali tashkil etish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

— Jizzax viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi binosini ta'mirlash va muzey ko'rgazmasini yangilash;

— muzeyni aholiga yaqinlashtirish maqsadida viloyatning chekka tumanlariga ko'chma ko'rgazmalar tashkil etish uchun muzeylarga maxsus avtomobillar ajratish;

— xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun muzey rahbarlarini chet el muzeylarida malaka oshirishlarini tashkil etish;

— muzey xodimlarining ko'p yillik mehnatlarini munosib rag'batlantirish maqsadida lavozim maoshiga har oyda qo'shimcha ustamalar berishni joriy qilish.

Tashrif buyuruvchilar tomonidan muzey va Sh.Rashidov haqida «Faxriy mehmonlar kitobi» mavjud bo'lib, unda yozib qoldirilgan fikrlar va taassurotlar alohida ahamiyatga ega. Ushbu katta hajmdagi kitobning ilk sahifasida mamlakat Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining quyidagi samimiy fikrlarini yozib qoldirgan: «Xalqimizning buyuk farzandi, atoqli davlat arbobi, yozuvchi Sharof Rashidov el-yurtimiz uchun fidoyi rahbar, betakror va benazir shaxs edi. Bu ulug' inson o'zining noyob aql-zakovati, boy bilim va tajribasi, mehnatkashligi, kamtarligi, yuksak insoniy fazilatlar bilan e'tibor qozongan edi. Sobiq mustabid tuzum davrida turli tazyiq va sinovlarga qaramasdan, u kishi og'ir kurashlarga bardosh berib xalqimiz va millatimizga sadoqat bilan xizmat qildi. Har qanday murakkab sharoitda ham el-yurtimiz manfaatini o'ylab yashagan Sharof Rashidovning buyuk xizmatlari xalqimiz xotirasida abadiy saqlanib qoladi. Bugun Jizzax shahrida ish boshlayotgan Sharof Rashidov memorial muzeyi ana shu ezgu maqsadga xizmat qiladi, deb ishonaman³.

XULOSA

Mazkur kitobda bir qancha taniqli shaxslar va chet eldan tashrif buyurgan mehmonlarning ijobiy fikrlari ham muhrlangan. Bu esa muzeylarning fuqarolar madaniy hayoti uchun yuksak ahamiyati va zaruratini ko'rsatadi. Chunki o'z o'tmishini, ajdodlari tarixini yaxshi bilgan insonning irodasi kuchli bo'ladi, uni har xil aqidalar girdobiga tushishdan saqlaydi.

Adabiyotlar:



1. Sharof Rashidov muzeyi ma'lumotnomasidan. (murojaat sanasi: 28.06.2022)
2. O'sha joyda. (murojaat sanasi: 28.06.2022)
3. Jizzax viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi Sharof Rashidov yodgorlik muzeyi filialining ilmiy xodimi Shohsanam Qurbonova nutqidan. (murojaat sanasi: 28.06.2022)

2. Jizzax viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi Sharof Rashidov yodgorlik muzeyi filiali ilmiy xodimi Shohsanam Qurbonova nutqidan. (murojaat sanasi: 28.06.2022)

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Jizzax shahridagi Sh.Rashidov muzeyida yuritilayotgan «Faxriy mehmonlar kitobi»ining 1-sahifasi. 2017-yil 6-noyabr. (murojaat sanasi: 28.06.2022)